O'ZBEKISTON VA GERMANIYA ILMIY- MADANIY MUNOSABATLAR TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI VA BUGUNGI TARAQQIYOTI

Ashuraliyev Firdavs Umidjon o'g'li
O'DJTU Xalqaro munosabatlar talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
+998882050809
e-mail; firdavsashuraliyev865@gmail.com

Ilmiy rahbari; **Yarmuhammedova Irodaxon Nosir qizi**
s.f.f.d. (PhD)., O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti
Siyosiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
+998974001440
Irodaxon1440@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20522494

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari hamda bugungi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi, siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiyaviy aloqalar, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, Germaniyaning O'zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri sifatidagi o'rni va ikki tomonlama munosabatlarning istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning o'zaro manfaatlar, ishonch va strategik sheriklik tamoyillariga asoslanib rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Germaniya, O'zbekiston, Olmoniya, mennotitlar, diplomatik munosabatlar, tarixiy aloqalar, siyosiy hamkorlik, iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar, ta'lim, madaniyat, strategik sheriklik.

ABSTRACT

This article examines the historical roots, formation, and current development trends of relations between Germany and Uzbekistan. It analyzes the establishment of diplomatic relations, political dialogue, trade and economic cooperation, investment activities, and collaboration in the fields of education and culture. The study also highlights Germany's role as one of Uzbekistan's most important partners in Europe and explores the future prospects of bilateral cooperation. The findings demonstrate that relations between Germany and Uzbekistan continue to develop on the basis of mutual interests, trust, and strategic partnership.

АННОТАЦИЯ

Отношения между Германией и Узбекистаном имеют глубокие исторические корни и в настоящее время динамично развиваются в политической, экономической, культурной и образовательной сферах. После обретения Республикой Узбекистан независимости между двумя государствами были установлены дипломатические отношения, что создало прочную основу для дальнейшего расширения двустороннего сотрудничества. В последние годы значительно укрепились торгово-экономические связи, инвестиционное сотрудничество, а также взаимодействие в области науки, образования и культуры. Германия является одним из важнейших стратегических партнёров Узбекистана в Европе. В данной статье анализируются исторические корни, этапы становления и развития германо-узбекских отношений, а также их современное состояние и перспективы дальнейшего сотрудничества.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi xalqaro munosabatlarning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi

mustaqillikka erishganidan so‘ng dunyoning rivojlangan davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratdi. Ana shunday muhim hamkorlardan biri Germaniya Federativ Respublikasi bo‘lib, u Yevropaning yetakchi siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida O‘zbekistonning tashqi siyosatida muhim o‘rin egalladi. Mustaqillik yillarida Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi tarixiy aloqalar yangi mazmun bilan boyidi. Germaniya 1991-yil 31-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi va 1992-yil 6-martda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Shundan so‘ng siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlik izchil rivojlana boshladi. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat mustaqillik yillarida, balki undan oldingi tarixiy davrlarda ham ma’lum darajada shakllangan. XIX asrdan boshlab nemis olimlari, sayyohlari va sharqshunoslarining Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqishi, keyinchalik esa O‘zbekiston hududida nemis diasporasining shakllanishi ikki xalq o‘rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarning rivojlanishiga zamin yaratgan. Nemislarning O‘zbekiston hududida istiqomat qila boshlashi XIX asrning 60 yillariga to‘g‘ri keladi. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman bilan birga mennot nemislari o‘lkaga ko‘chib kelishi va ular dastlab Xorazm hududida joylashganligi 1869-yilda Toshkentda uchta prussiyalik va bitta saksoniyalik yashaganligi haqida ma’lumot bor. 1977-yilga kelganda esa ular soni 17 tani tashkil qilgan. 1882-yilda nemislarning ilk qishloqlari – Konstantin va Stepno shakllandi. 1920-yilga kelganda ularning birinchisida 1403 nafar, ikkinchisida 514 nafar nemis istiqomat qilgan. O‘zbekiston hududida 1926-yilda 4 646 nafar nemis istiqomat qilgan. 1989- yilga kelganda ularning soni 39 809 nafarga yetgan.[1] O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Germaniya mamlakatimiz mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan davlatlardan biri sifatida ikki tomonlama hamkorlikning yangi bosqichiga asos soldi.[2] Hozirgi kunda Germaniya O‘zbekistonning Yevropadagi eng muhim siyosiy va iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiyaviy hamkorlik, energetika, sanoat, transport, ta’lim, fan va madaniyat sohalaridagi munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida Germaniyaning O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi yanada ortib, ikki tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy shakllanish jarayonlarini o‘rganish, ularning bugungi holatini tahlil qilish hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash zarurati ikki tomonlama hamkorlikda muhim hisoblanadi. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini ilmiy asosda tadqiq etish zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.Olmon mennotitlarining ya’ni salohiyatli ,zukko,ishbilarmon nemis xalqining yurtimizga ko’chib kelishi tarixi juda uzoq davrni o’z ichiga oladi.Ularning yurtimizga xonlik va amirlik davridan boshlab diniy e’tiqodlari tufayli yurt kezib,oxir-oqibat Xorazmdan Xiva xonligidan makon topib,o’z hayotlarini davom ettirganligi,mahalliy xorazm aholisiga dehqonchilikda ilg’or texnalogiyalardan foydalanish,chorvachilik,hunarmandchilikning sir- asrorlarini batafsil o’rgatib, yangi zavod va fabrikalarni bunyod etib,mahalliy ishsiz aholini ish bilan ta’minlab, vaqtini mazmunli tashkil etishiga, hayot tarzini yaxshilashga sababchi bo’lgan hamkorlarimizdan biri bu-Germaniya[olmoniya] xalqi hisoblanadi.[3] Adib Nur Ahmadning "Xorazm nemislari" asarida Xiva xonligi hududiga ko‘chib kelgan mennonit nemislarning taqdiri, ularning mahalliy aholi bilan o‘zaro munosabatlari hamda Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni yoritilgan. Asarda ta'kidlanishicha, olis o‘lkalardan kelgan nemis oilalari mahalliy muhitga moslashib, dehqonchilik, hunarmandchilik va ishlab chiqarish sohalarida faoliyat yuritgan. Muallif ushbu tarix orqali o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, mehmondo‘stligi va turli millat vakillari bilan ahil yashash an'analarini ochib beradi. Shu jihatdan asar Germaniya va O‘zbekiston xalqlari o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.[4]Xiva xonidan Telman boshchiligidagi olmon yigitlarining siyosiy boshpana so’rab kelishi va bu iltimosning Muhammad Rahimxon Soniy tomonidan

[1] Национальный состав населения Узбекистана по материалам переписей населения 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 и 1989 годов. – Ташкент: Госкомстат Республики Узбекистан.
[2] Турсунов А. Ўзбекистон ва Германия ўртасидаги иқтисодий ҳамкорликнинг замонавий йўналишлари. – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 34–38.
[3] Алимова Д.А. История немецкой диаспоры в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 2015. – Б. 23–29.
[4] Нур Аҳмад. Хоразм немислари. – Тошкент, 2019. – Б. 15–35.

etirozsiz qabul qilinganligi u yigitlarning turkiy tilda qolaversa, xorazm lahjasida mahalliy xorazmliklardan qolishmaydigan darajada muloqot qilishi xon va amaldorlarni lol qoldiradi.Ruxsat olgan olmon mennotitlari birin- ketin xorazmga ko'chib kela boshlaydi. Dastlab chekka hududlarga so'ngra markaziy Xiva shahridan boshpana, makon qura boshlaydilar. Nemis ko'chmanchilari tomonidan qurilgan uy-joylar, xo'jalik binolari va ishlab chiqarish inshootlari ularning mehnat madaniyati, tartib-intizomga amal qilishi hamda xo'jalik yuritish tajribasidan dalolat beradi.[5]Ikki davlat o'rtasidagi munosabatar tarixi shu yerdan boshlangan edi.

Zamonaviy aloqalar ham ko'p sohalarni o'z ichiga olgan bo'lib,Germaniya bilan siyosiy jihatdan yaqinlashuv ayniqsa mustaqillik yillaridan keyin sezilarli darajada oshdi. Toshkent va Berlin shaharlarida elchixonalar ochilib, siyosiy muloqotning huquqiy asoslari yaratildi. Shu davrdan boshlab savdo, iqtisodiyot, fan, ta'lim va madaniyat sohalarida qator shartnoma va bitimlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar va rasmiy tashriflar siyosiy muloqotni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Germaniya O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab kelayotgan davlatlardan biri bo'lib qolmoqda. Migratsiya va mobillik sohasida keng qamrovli hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim, veterinariya va chorvachilik sohasidagi hamkorlik deklaratsiyasi, yashil Markaziy Osiyo tashabbusi doirasida suv resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha deklaratsiya, muhim mineral resurslar bo'yicha hamkorlik deklaratsiyasi, transport sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim va shu kabi ikki tomonlama kelishuv shartnomalarining imzolanishi ikki tomon manfaatlariga zid bo'lmagan holda amalga oshirilib kelinmoqda.Bularning barchasi 2024-yil sentyabr oyida Germaniya Kansleri Olaf Sholsning O'zbekistonga tashrifi davomida imzolangan kelishuv bitimlaridir.

Iqtisodiy sohadagi aloqalar ham aynan O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda Germaniya investitsiyalarining o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini aks ettirmoqda. 1993-yilda investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi bitimning imzolanishi iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Mazkur hujjat Germaniya investorlarining O'zbekiston bozoriga kirib kelishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Natijada mamlakatimizda Germaniya kapitali ishtirokidagi ko'plab korxonalar tashkil etildi. Mamlakatimizda Germaniyaning Siemens, MAN, Knauf, Claas kabi yirik kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Germaniya kompaniyalari O'zbekiston iqtisodiyotining energetika, mashinasozlik, transport, qurilish, kimyo sanoati va qishloq xo'jaligi kabi muhim tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda. Xususan, Siemens kompaniyasi energetika va sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish loyihalarida ishtirok etmoqda. Knauf kompaniyasi qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirib, yuzlab yangi ish o'rinlarini yaratdi. Claas kompaniyasi esa zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini yetkazib berish orqali agrar sohaning rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.[6] So'nggi yillarda iqtisodiy hamkorlikning yangi yo'nalishlari shakllantirilmoqda. Xususan, yashil energetika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Germaniya kompaniyalari quyosh va shamol energetikasi loyihalarida ishtirok etish orqali O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tishini, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini ham qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bu esa mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy tizimga yanada faol integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning kengayishi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikning mustahkamlanishiga, yangi investitsiyalar jalb etilishiga va zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishiga imkon yaratmoqda.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarning eng rivojlangan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Germaniya Akademik Almashinuv Xizmati (DAAD) O'zbekiston va Germaniya universitetlari o'rtasidagi akademik hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu dastur orqali yuzlab o'zbekistonlik talabalar, magistrlar, doktorantlar va ilmiy tadqiqotchilar Germaniyada tahsil olish hamda malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.Xususan, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti talabalari ham bunday imkoniyatlardan foydalanmoqda va universitet

[5] Umarov S. From History Cooperation Uzbekistan and Germany // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – P. 115–120.
[6] O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. O'zbekiston–Germaniya iqtisodiy hamkorligi. – Toshkent, 2023.

Germaniyaning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘y. Talabalar almashinuvi, qo‘shma ta'lim dasturlari, ilmiy konferensiyalar va stajirovkalar muntazam ravishda tashkil etib kelinmoqda. Bu esa yosh mutaxassislarning xalqaro tajribani o‘zlashtirishiga va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston va Germaniya olimlari tarix, arxeologiya, ekologiya, geologiya, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va texnika fanlari yo‘nalishlarida qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston hududidagi tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda nemis olimlarining hissasi katta. Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz kabi qadimiy shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda Germaniya ilmiy markazlari faol ishtirok etgan. Ushbu tadqiqotlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining tarixini chuqurroq o‘rganishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ekologiya va iqlim o‘zgarishi masalalariga bag‘ishlangan qo‘shma ilmiy loyihalar ham amalga oshirilib, Orol dengizi muammosi, suv resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha Germaniya ilmiy muassasalari O‘zbekiston bilan faol hamkorlikni amalga oshirmoqda.[7] Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan Gyote instituti nemis tilini o‘qitish, Germaniya madaniyatini targ‘ib qilish va madaniy almashinuv dasturlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ikki davlat o‘rtasida muntazam ravishda madaniyat kunlari, san'at ko‘rgazmalari, kino festivallari, teatr gastrollari va musiqa festivallari tashkil etib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar orqali ikki xalq bir-birining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy merosi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Germaniyada ham O‘zbekiston madaniyati va san'atini targ‘ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbek milliy musiqa san'ati, amaliy bezak san'ati va tarixiy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar nemis jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma’rifiy aloqalar milliy uyushmasi Germaniyaning “Berlin-Brandenburg-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati bilan hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yildi. Jamiyat tomonidan 1995-yil oktyabrda Germaniyada “O‘zbekiston haftaligi” o‘tkazilishi aloqalarni mustahkamlash bilan birga nemis millatiga o‘zbek madaniyati va tarixini tanishtirish imkoning berdi. Shu bilan birga do‘stlik jamiyati ko‘magida 1995-yil noyabrda Berlin va Potsdamda “O‘zbekiston madaniyati kunlari” o‘tkazildi. Tadbir davomida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma’rifiy aloqalar milliy uyushmasi va “BerlinBrandenburg-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati o‘rtasida 1996-1998-yillarda hamkorlik qilish bo‘yicha bayonnoma imzolandi [. Bu bayonnoma ikki jamiyatga xalq diplomatiyasining turli shakllaridan, madaniyat, san’at, fan, ta’lim va tibbiyot sohasidan foydalanib, ko‘plab tadbirlarni amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa O‘zbekiston va Germaniya xalqlariga meros bo‘lib qolgan boy madaniyatni yoritib berishga xizmat qildi.

Kelgusida madaniyat sohasidagi hamkorlikni jadallashtirish uchun ikki davlat o‘rtasida imkoniyatlar mavjud. Buning uchun davlatlar quyidagi masalalarga e’tibor berishi lozim: Birinchidan, madaniy hamkorlik aloqalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan manfaatli loyihalarni amalga oshirishda birinchi galda masalaning moddiy jihatlari muammo tug‘dirishi mumkinligini eslatgan holda, bu masalani tijorat asosida yoki o‘z navbatida homiylar jalb qilish orqali hal qilish; Ikkinchidan, ikki davlat hududlarida o‘tkaziladigan madaniyat va san’at yo‘nalishidagi xalqaro festivallar, tanlovlar, musobaqalar va boshqa tadbirlar haqida ma’lumotlar almashish va ushbu tadbirlarda ikki davlat vakillarining ishtirokini ta’minlashda ko‘maklashish; Uchinchidan, teatrlar, badiiy jamoalar va alohida ijrochilar o‘rtasida ijodiy almashuvlar tashkil etish hamda hamkorlikda ijodiy loyihalarni amalga oshirish; To‘rtinchidan, madaniyat va san’at o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, talabalari o‘rtasida tajriba almashuvini yaxshi yo‘lga qo‘yish bilan imkoniyatlar jadallashadi.

Shu o‘rinda aytish joizki, O‘zbekiston-Germaniya o‘rtasidagi madaniy-ma’naviy hamkorlikning chuqurlashuvi shubhasiz, mamlakatlarimizning yangi asrning navbatdagi o‘n yilligida aloqalarni yanada keng yo‘lga qo‘yishi hamda turli masalalardagi o‘zaro hamfikrligi, qarashlar hamohangligining mushtarak ekanligi bilan bog‘liq hisoblanadi.

[7] Yakubov S.B. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi ilmiy-ekologik hamkorlikning zamonaviy yo‘nalishlari. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 84–87

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Нур Аҳмад. Хоразм немислари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.
2. Deutsch-Usbekische wissenchaftliche gesellschaft e.V. 5 jahre. 2002-2007. – Freiburg, 2008.
3. Wiedergeburt Ўзбекистон немислар маданий маркази // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқ Ташкент-Берлин.
4. Два города в фотографиях // Мир новостей Узбекистан. 10 июля 2013 г. – № 28.
5. Ўзбекистон-Германия дўстлик жамияти жорий архиви (ЎГДЖЖА). Отчеты общества дружбы «Узбекистан-Германия» за 2006-2017 годы.алари қўмитаси расмий сайти //
6. Германия и Узбекистан: 30 лет дипломатических отношений // Посольство Федеративной Республики Германия в Узбекистане. – Ташкент, 2022.
7. Green Central Asia Initiative: Cooperation between Germany and Central Asian countries on climate, water resources and environmental protection. – Berlin, 2023.